

RAQAMLI JAMIYAT KONSEPSIYASINING IJTIMOIIY – FALSAFIY TAHLILI

Teshayeva Gulchehra Murodovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, modernizatsiya, tendensiya, konvensional

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy va huquqiy islohotlar, jamiyatni modernizatsiyalash, demokratiyaning rivojlanishi, qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamlanishi, ayniqsa raqamli jamiyat sharoitida avvalambor, fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi, har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglashi, majburiyatlarini vijdonan bajarishi, qonunlarga qat'iy rioya etishi va ijtimoiy sohadagi raqamlashtirish masalalari bayon etilgan.

Ma'lumki, «ijtimoiy» so'zi «jamoatga doir», «kishilarning jamiyatdagi hayoti va munosabatlari bilan bog'liq», degan ma'nolari anglatadi. Bunda insonni ijtimoiy tarbiyalash va kamol toptirish haqidagina emas, balki uni ijtimoiy qadriyatlar bilan, u yashashi va o'zini shaxs sifatida namoyon etishi lozim bo'lgan jamiyat me'yorlari va qoidalari bilan oshno etish haqida ham boradi. Ijtimoiylashuv esa madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish, shaxsning o'zini o'zi kamol toptirish va o'z imkoniyatlarini jamiyatda ro'yobga chiqarish jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv insonning jamiyatga moslashish jarayoni sifatida qaraladi. Jamiyat o'zining har bir a'zosini o'ziga xos bo'lgan madaniyatga muvofiq shakllantiradi. Falsafa ijtimoiylashuvga konkret jamiyat sharoitida moslashuv (ijtimoiy moslashuv) va mustaqillashuv (individuallikning shakllanishi) jarayonlarining birligi sifatida qaraydi. Ijtimoiylashuvning ko'p sonli konsepsiyalari mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga birlashtirish mumkin: sub'ekt-ob'ekt va sub'ekt-sub'ekt yondashuvlari. Sub'ekt-ob'ekt

yondashuvi ijtimoiylashuv jarayonida insonning passiv rolini nazarda tutadi. Sub'ekt-sub'ekt yondashuvida inson faol pozitsiyani egallaydi va jamiyatga moslashibgina qolmasdan, o'z yashash sharoitlari va o'z-o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiylashuv va shaxsning ijtimoiy tabiati inson hayotining turli bosqichlarida o'z xususiyatlariga ega bo'ladi.

Bu borada Falsafa uchun eng dolzarb masala insonparvarlik muammosi hisoblanadi. «Insonparvarlik» va «insoniylik» so'zlari lotincha «insoniy» so'zidan kelib chiqqan. Insonparvarlik – insonning shaxs sifatidagi qimmatini tan oluvchi, uning erkinlik, baxt-saodat, kamol topish va o'z qobiliyatlarini namoyon etishga bo'lgan huquqini e'tirof etuvchi qarashlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. U inson farovonligini ijtimoiy hodisalarga baho berish mezoni deb, tenglik, odillik va insoniylikni esa – jamiyatdagi munosabatlarning maqbul me'yori deb hisoblaydi. Insoniylik – insonparvarlikning turli yo'nalishlari ideali, uning maqsadi insonning noyob qobiliyatlari, tuyg'ulari va tafakkurini rivojlantirish, insoniyat madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishdir. Hozirgi vaqtda keng ko'lamda ishlatilayotgan «insonparvarlashuv» tushunchasi ayrim kishilar va hamjamiyatlarning insonparvarlikni dunyoqarash tizimi sifatida amalga oshirish borasidagi faoliyatini nazarda tutadi. Insonparvarlik tushunchasi «inson» tushunchasi bilan o'zaro aloqada rivojlanuvchi omil hisoblanadi.

Hozirgi zamon fanining yetakchi tendensiyasi – insonga, uning dunyoqarashiga murojaat etish. Insonparvarlik dunyoqarashining mohiyatini o'zaro aloqa qiluvchi dunyo konsepsiyasi tashkil etadi. U biz yashayotgan dunyo yaxlit inson dunyosidir, degan g'oyani ilgari suradi. Insonning ijtimoiy kamol topishini insonparvarlik prinsipini hisobga olgan holda o'rganish talab etiladi. Bu jumladan raqamli jamiyat konsepsiyasida ham namoyon bo'ladi.

Jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi va uni ijtimoiy tarbiyalash uning individual kamol topish darajasiga bog'liq ekanligini ilmiy asoslash, bu borada asosiy tendensiyalarini aniqlash, uning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy va huquqiy islohotlar,

jamiyatni modernizatsiyalash, demokratiyaning rivojlanishi, qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamlanishi, ayniqsa raqamli jamiyat sharoitida avvalambor, fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi, har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglashi, majburiyatlarini vijdonan bajarishi, qonunlarga qat'iy rioya etishiga bog'liq. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, raqamli jamiyat sharoitida fuqarolarning ijtimoiy foydali faol xulq-atvori, axborot va texnikaviy taraqqiyot omillariga nisbatan ijtimoiylashganligi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil bo'lib, shaxsni modernizatsiyalash jarayonining hal qiluvchi sub'ektiga aylantiradi.

Tabiiyki, shaxs ijtimoiylashuvi murakkab kompleks mavzu bo'lganligi sabab, uning mazmun-mohiyatini to'liq tavsiflash uchun mazkur hodisaning shakllanish darajalari, bosqichlari va xususiyatlarini ochish, maxsus turlari hamda shakllarini ifodalovchi tasnifini keltirish, qolaversa, u bajaradigan funksiyalarni batafsil tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shaxs ijtimoiylashuvining ushbu qirralarini ochish uchun maxsus ilmiy adabiyotlardagi yondashuvlarni, konseptual fikrlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, ijtimoiylashuvning etik-sub'ektiv (shaxsning ma'naviy-ahloqiy ijtimoiylashuvi) nazariyasi muallifi hisoblangan professor N.K.Mixaylovskiy ushbu voqelikni individning o'zini o'zi namoyon etishi, uning individualligini rivojlantirish, ahloqiy pozitsiyasining qaror topishi, shaxsning ahloqiy ideallarining yuzaga chiqishi deb ta'riflaydi.

Amerikalik ruhshunos L.Kolberg fikricha, ijtimoiylashuv jarayonini individning butun hayoti mobaynida ahloqiy ongi qaror topishi bilan bir qatorda, uning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish tajribasi shakllanishidir. Olim shaxs ijtimoiylashuvining uchta darajasini ajratib ko'rsatadi:

- a) ilk konvensional;
- b) konvensional;
- v) postkonvensional.

Olimning yuqoridagi fikrlarini tahlil etib, ijtimoiylashuv o'z mohiyatiga ko'ra, individ (shaxs)ning normativ ongi va xulq-atvoriga oid qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni, deb baholaydi. Bunda shaxs o'z xatti-harakatini chegaralab,

o'zgalarning, boshqa individlarning manfaatlari, huquq va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini egallaydi, deydi. Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvining quyidagi darajalarini izohlaydi:

1. Ilk konvensional (ahloq shakllanishidan avvalgi) daraja. Bunda inson (asosan yosh bola) katta yoshdagilarning talablariga itoat etadi. Shu sababdan u mavjud qoida va normalarni buzishdan saqlanadi. Farzand bu fazada otionalarning rag'batlantirishi bois normativ xulq-atvorni egallaydi.

2. Konvensional darajada «ahloqiy» ong shakllanadi. Yaxshi va yomon kategoriyalarini anglab harakatlanib, kattalarning ma'qullashiga erishishga intiladi. Atrofida, jamoada mavjud qoidalarni hurmatlab, ularga rioya etishga harakat qiladi.

3. Mustaqil ahloqiy daraja, bunda endi inson nima to'g'ri, nima noto'g'ri, nima «yaxshi», nima «yomon»ligini o'zi tushunib yetadi. Xulq-atvorning qoidalari, normalari, mazmunini anglaydi. Ularga rioya etish hamda qo'llanishda xushyorlik va tavozeni namoyon etadi.

Keltirilgan darajalarni shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ham daxldor deb hisoblash mumkin. Analogiya tarzida qo'llaydigan bo'lsak, uchinchi darajani huquqni mustaqil anglash darajasi deyish mumkin. Demak, yakuniy darajada shaxs atrofida sotsial-huquqiy makon mavjudligini tushunib yetadi. Unda, jumladan, raqamli jamiyatda tegishli o'z ahloqiy prinsiplari kabi o'z normativ prinsiplari shakllanadi. Shu bois u huquqiy qoida, prinsip va normalarni anglab, ularning talablariga rioya etishga, huquqiy munosabatlarga kirishganda o'zini oqilona, qonunga muvofiq tutishga harakat qiladi.

I.P.Usimova ijtimoiylashuvning quyidagi daraja va bosqichlarini tahlil etadi:

a) shaxs ijtimoiylashuvining birinchi bosqichida ijtimoiy bilimlarni o'rganish, jamlashni amalga oshiradi. Ijtimoiy muhitda (makonda) harakatlanish, buning uchun zarur xulq-atvorni, ko'nikmalarni o'zlashtiradi;

b) ikkinchi bosqichda huquqiy qadriyatlar va institutlarning ma'no-mazmunini anglab yeta boshlaydi. Ularni o'z e'tiqodiga aylantirish jarayonini o'taydi;

v) uchinchi bosqichda shaxsning ichki e'tiqodiga aylangan ijtimoiy qoida, prinsip, normalar hamda qadriyatlar amalga oshadi. Ya'ni, ular shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi. Muallif ijtimoiylashuvning yangi to'rtinchi bosqichini, uning yuksak darajasini taklif etadi. Bunga ko'ra, shaxs ijtimoiylashuvning to'rtinchi bosqichida o'zi yangi ijtimoiy qadriyatlarni vujudga keltiradi.

Olimaning qarashlarini qo'llab-quvvatlashimiz qiyin. Fikrimizcha qadriyatlarni «kashf etish», vujudga keltirish bitta shaxsning ishi emas. Ijtimoiy qadriyatlar butun jamiyatning, katta ijtimoiy guruhlarining faoliyati, tajribasi asosida shakllanadigan ne'matdir. Hozirgi ma'rifiy demokratik jamiyatlarda, ayniqsa raqamli jamiyatda qadriyatlar huquq (qonun) ijodkorligi jarayonida tegishli normativ hujjatlarda rasmiylashtiriladi hamda mustahkamlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda shaxs ijtimoiylashuvining bosqichlarini beshta deb isbotlashga harakat qilinadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uning butun hayoti davomida amalga oshadi va quyidagi bosqichlardan iborat kechadi:

1) dastlabki bosqich – bola (farzand) maktabga borgunga qadar muayyan xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'ladi;

2) boshlang'ich bosqich – sub'ekt huquq haqidagi bilim asoslarini egallaydi, uning hayotdagi rolini anglaydi;

3) o'tish bosqichi – fiziologik, ruhiy rivojlanish va siyosiy-huquqiy tasavvurlarning vujudga kelishi;

4) asosiy (bazaviy) bosqich – qadriyatlarni, normalarni o'zlashtirish muhimligi, zarurligini anglash;

5) yakuniy, faol ijtimoiy faoliyat bosqichi.

Bunda egallangan bilimlar mustahkamlanadi, yangi bilimlar egallanadi, shaxs ijtimoiy-huquqiy faoliyatga aktiv jalb etiladi (yoki o'z intilishi bilan ishtirok etadi). Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida uning sotsial-huquqiy muhitga moslashuvi, bu jarayonning mexanizmi ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.

2. “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-son qarori.

3. “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.

4. Г.Тешаева//Формирование в новом Узбекистане цифрового общества//Oriental journal of technology and engineering 2024.

<https://supportscience.uz/index.php/ojte/article/view/1021>

5. Xoshimova D., & Parpieva R. (2020). Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar

6. G.M.Teshaeva //Man in the digital society//European international journal of multidisciplinary research and management studies.

<https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/1801>

7. Babadjonov S.S. Jamiyatning mediavaxfsizligi sharti sifatida mediata’lim sohasining rivojlanishi. // «Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o‘tmish tajribasi, istiqbollari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2016 yil 154 aprel. 1-qism, 17-b. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. <http://edu/of/ru/mediaeducation>

<http://www.mediagram.ru/mediaed/journal>

8. Balmaeva S.D. «Многозадачное поколение», дефицит внимания и конвергенция // Медиаконвергенция и мультимедийная журналистика / sost. S.D. Balmaeva. Yekaterinburg, Gumanitarnyy un-t, 2011. S. 49.

9. Begalov B.A., Jukovskaya I.Ye. Методологические основы влияния информационно-коммуникационных технологий на развитие национальной экономики. Монографиya. –Т:Iqtisodiyot, 2018. -178s.